

**YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI – BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH  
OMILI****Nurniyozov Aktam Abdinazarovich***dotsent, SamDVMCHBU***Jumayeva Marvaridbonu Ziyodulla qizi***SamDVMCHBU talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kun yoshlarining kamolotga yetishi yo'lida, yurtboshimiz tomonidan yaratilayotgan zaruriy shart-sharoitlar, imkoniyatlar va bildirilgan ishonchning ahamiyati haqida bayon qilingan.*

**Kalit so'zi:** *raqamli texnologiyalar, zamonaviy kasblar, ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik.*

**Аннотация:** В статье описаны необходимые условия, возможности и значение доверия, выраженного главой государства, для развития современной молодежи.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, современные профессии, духовная зрелость, патриотизм.

**Abstract:** The article describes the necessary conditions, opportunities and the importance of confidence expressed by the head of state for the development of today's youth.

**Key words:** digital technologies, modern professions, spiritual maturity, patriotism.

Asosiy matn. O'zbekistonda maktabgacha, umumiy o'rta va boshlang'ich kasbhunar ta'limi, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan iborat aniq tuzilgan uzluksiz ta'lim davlat tizimi mavjud. Shu sababli ham farzandlarimizning ilmli va salohiyatl shaxs sifatida shakllanishida hech qanday to'siq yuzaga kelmaydi.

Kundan kunga har sohada yaratilajak imkoniyatlar, kiritilayotgan "investitsiya" lar, islohotlar samarasi o'laroq, yoshlar qiziqqan sohasida faoliyat olib borib, ulkan cho'qqilarni zabit etishida ustun vazifasini o'tamoqda. Xususan, yaqin o'n yil ichida raqamli texnologiyalar, hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelmoqda.

Yurtdoshlarimiz ham zamon bilan hamnafas ruhda ildam odimlab, o'z ustilarida yanada ko'proq harakat qilib, oldiga qo'ygan aniq bir maqsadlari yo'lida intilishdan tolmayotganliklarini, bir qancha misollar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. "Hech bir narsa mamlakatni sportchalik tez dunyoga tanita olmaydi", deganlaridek yoshlarimiz sportning shaxmat, boks, taekvondo, suzish, kurash ham boshqa ko'plab

yo'nalishlarda o'tkazilayotgan jahon, Osiyo, olimpiada championatlarida faol ishtirok etishib, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarayotganliklari so'zimiz isbotidir.

Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat tamoyilining konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi, inson qadrini yanada ulug'lash, hozirgi va kelgusi avlodlarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilganini alohida e'tirof etish zarur. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga vatanga bo'lgan muhabbatni singdirib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularni tarbiyalashda milliy urf-odatlarimizga tayangan holda ish olib borilayotgani nur ustiga a'lo nur bo'lmoqda.

Yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilib, mahallalarda ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida turli tadbirkorlik subyektlariga biriktirilmoqda. Bundan tashqari, yoshlar o'zini o'zi band qilishlari, qiziqarli sohasida kasb-hunarga o'qitilishini ta'minlash maqsadida, "Yoshlar daftari", "Temir daftar" hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni aniqlab, imkon qadar ko'maklashilayotgani ham hamyurlarimizning ikkilanmay, to'g'ri yo'ldan og'ishmay harakat qilishlarida kamarbasta bo'lmoqda.

Bundan tashqari, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish, ayniqsa, ta'lim tizimi xodimlarini o'z xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lмаган ishlarga jalb etish hollariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha "to'lishgan" bosh qomusi 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Unga kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarda ham inson huquqlari, sha'ni, erkinligi yo'lida qilinayotgan ishlar, ijrosi ta'minlanayotgan qonunlar shubxasiz, adolatli bo'lmoqda. Shu o'rinda, uangilangan Konstitutsiyamiz "Uchinchi renessans"ni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlash joiz. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to'liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni "tugal er", Forobiy "fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "komil inson" deb ataganlar. "Har tomonlama rivojlangan shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs" atamalari ham qo'llanilgan.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo'yicha amalga oshirilayotgan bir qator samarali ishlar natijasi o'laroq, nafaqat yoshlar balki insonni ulug'lashga doir bir qator yangi qonunlar kuchga kirgani ham islohotlarning eng ustuvori desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, zamонавиу kasblarning tez va jadal suratlarda aholi orasida оммалашishi sababli yetishib

chiqayotgan barkamol avlodning yana bir sohada rivojlangan mamlakat yoshlariga yetib olishiga zamin yaratmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Lex.uz sayti.
2. Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 7 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrige
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarida Parlamentga murojaatnomasi
4. "2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi"
- 5.<https://pravacheloveka.uz/oz/news/yangi-ozbekistonning-barabolishiislohotlarning-birinchi-bosqichi-natijalari-va-keyingi-taraqqiyot-vazifalari>
6. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-ijtimoiy-davlat\\_387619](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-ijtimoiy-davlat_387619)